
Qabul qilindi: 16-noyabr 2026-yil • Ma’qullandi: 18-noyabr 2026-yil • Nashr qilindi: 20-noyabr 2026-yil

ISTE’FO INSTITUTINING KONSTITUTSIYAVIY-HUQUQIY TABIATI VA UNI TARTIBGA SOLISHNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

To‘xtamishev Bryusli Xursan o‘g‘li
Toshkent davlat yuridik universiteti
Davlat boshqaruvi huquqi magistranti
E-mail: bryuslit@gmail.com



Annotatsiya. Maqolada iste’fo institutining konstitutsiyaviy-huquqiy tabiati, uning lavozimdan ozod etish va ishonchsizlik votumidan farqi hamda O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida tartibga solinishi tahlil qilinadi. Konstitutsiya va “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy qonun normalari asosida “iste’fo” atamasining turli ma’nolarda qo‘llanishi va hukumat a’zolarining o‘z tashabbusi bilan iste’foga chiqish tartibi faqat Bosh vazirga nisbatan belgilangani ko‘rsatiladi. Formal-yuridik, tizimli va qiyosiy-huquqiy usullar yordamida Germaniya, Fransiya, Yaponiya va Qozog‘iston konstitutsiyalaridagi tegishli normalar o‘rganiladi. Tadqiqot natijasida iste’foning ishchi ta’rifi va tasnifi taklif etiladi, atamalarni muvofiqlashtirish hamda hukumat a’zosining o‘z tashabbusi bilan iste’foga chiqish tartibini qonunda belgilashga doir takliflar ilgari suriladi.

Kalit so‘zlar: iste’fo, konstitutsiyaviy-huquqiy javobgarlik, Vazirlar Mahkamasi, ishonchsizlik votumi, lavozimdan ozod etish, huquqiy aniqlik.

Аннотация. В статье анализируются конституционно-правовая природа института отставки, его отличие от освобождения от должности и вотума недоверия, а также его регулирование в законодательстве Республики Узбекистан. На основе норм Конституции и Конституционного закона «О Кабинете Министров Республики Узбекистан» показано, что термин «отставка» используется в различных значениях, а порядок отставки членов правительства по собственной инициативе установлен только в отношении Премьер-министра. С помощью формально-юридического,

системного и сравнительно-правового методов исследуются соответствующие нормы конституций Германии, Франции, Японии и Казахстана. По результатам исследования предлагаются рабочее определение и классификация отставки, а также выдвигаются предложения по согласованию терминологии и закреплению в законе порядка отставки члена правительства по собственной инициативе.

Ключевые слова: отставка, конституционно-правовая ответственность, Кабинет Министров, вотум недоверия, освобождение от должности, правовая определённость.

Abstract. The article analyses the constitutional and legal nature of the institution of resignation, its distinction from dismissal and from the vote of no confidence, and its regulation in the legislation of the Republic of Uzbekistan. Based on the Constitution and the Constitutional Law “On the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan”, it shows that the term “resignation” is used in several meanings and that the procedure for resignation of government members on their own initiative is established only for the Prime Minister. Using doctrinal, systematic and comparative legal methods, the relevant provisions of the constitutions of Germany, France, Japan and Kazakhstan are examined. As a result, a working definition and classification of resignation are proposed, together with recommendations on harmonising terminology and establishing in law a procedure for a government member’s resignation on his or her own initiative.

Keywords: resignation, constitutional liability, Cabinet of Ministers, vote of no confidence, dismissal from office, legal certainty.

Kirish

2023-yilgi konstitutsiyaviy islohot natijasida ijro etuvchi hokimiyatni shakllantirish va uning vakolatlarini tugatish tartibi yangi tahrirda belgilandi. Konstitutsiyaning 116-moddasi hukumatning yangi saylangan Oliy Majlis oldida vakolatlarini zimmasidan soqit qilishini, 118-moddasi hukumat yoki uning a’zosini iste’foga chiqarish tartibini, 119-moddasi esa Bosh vazirga ishonchsizlik votumini nazarda tutadi. 2024-yil 25-oktabrda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy qonun ushbu qoidalarni rivojlantirib, Bosh vazirni lavozimidan ozod etish asoslarini, shu jumladan

uning iste’foga chiqish to‘g‘risidagi arizasini belgilaydi.[1] Shunday qilib, milliy qonunchilikda iste’foning bir nechta ko‘rinishi mustahkamlangan. Biroq ularning o‘zaro nisbati, “iste’fo” atamasining qo‘llanishi hamda hukumat a’zolarining o‘z tashabbusi bilan iste’foga chiqish tartibi ilmiy tahlilni talab etadi.

Konstitutsiyaviy-huquqiy javobgarlik masalalari M. Tillabayeva va N.M. Kolosova tomonidan, hukumatni shakllantirish va uning javobgarligi institutlari esa B.B. Alimov tomonidan xorijiy tajriba bilan qiyosiy tarzda o‘rganilgan. Vazirlar mas’uliyati doktrinasi S. Finer va D. Woodhouse ishlarida tahlil qilingan. [2] Mazkur tadqiqotlarda iste’fo asosan javobgarlikning umumiy nazariyasi yoki hukumat javobgarligi doirasida ko‘rib chiqilgan. Maqolaning maqsadi iste’fo institutining konstitutsiyaviy-huquqiy tabiatini aniqlash, uni lavozimdan ozod etishning boshqa asoslaridan farqlash mezonlarini belgilash va qonunchilikni takomillashtirishga doir takliflar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqotda formal-yuridik, tizimli va qiyosiy-huquqiy usullardan foydalanildi.

Asosiy qism

Konstitutsiyada “iste’fo” atamasi bir xil ma’noda qo‘llanmaydi. 113-moddada u Prezident vakolatining tugashi munosabati bilan yuzaga keladigan holatni ifodalaydi. 118-moddada Prezidentning Bosh vazirni, hukumatning amaldagi tarkibini yoki uning a’zosini iste’foga chiqarish huquqi, shuningdek, Qonunchilik palatasining hukumat a’zosini iste’foga chiqarish to‘g‘risidagi taklifi nazarda tutilgan. 119-moddada ishonchsizlik votumi qabul qilingan taqdirda hukumatning butun tarkibi Bosh vazir bilan birga iste’foga chiqishi belgilangan. 116-moddada esa hukumat vakolatlarining yangi saylangan Oliy Majlis oldida soqit qilinishi “iste’fo” deb nomlanmagan.[3] Konstitutsiyaviy qonunning 8-moddasida iste’fo Bosh vazirning arizasi bilan bog‘langan.[4] Demak, qonunchilikda bu atama vakolat muddati

[1] O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 30.04.2023. 116, 118, 119-moddalar. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy qonuni. 25.10.2024, O‘RQ-982-son. 8-modda.
[2] Tillabayeva M. O‘zbekiston Respublikasida konstitutsiyaviy huquqning mohiyati masalasida // Jamiyat va innovatsiyalar. 2024. Vol. 5, No. 4/S. B. 47–55. Колосова Н.М. Конституционная ответственность в Российской Федерации. М.: Городец, 2000. Alimov B.B. Hukumatni shakllantirish va javobgarligi: O‘zbekiston modeli va xorijiy tajriba // Yurisprudensiya. 2026. Vol. 6, No. 4. B. 48–56. Finer S.E. The Individual Responsibility of Ministers // Public Administration. 1956. Vol. 34, No. 4. P. 377–396. Woodhouse D. Ministers and Parliament: Accountability in Theory and Practice. Oxford: Clarendon Press, 1994.
[3] O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 30.04.2023. 113, 116, 118, 119-moddalar.
[4] O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy qonuni. 25.10.2024, O‘RQ-982-son. 8-modda.

tugashini ham, vakolatli organ qarori bilan vakolatlarni tugatishni ham, shaxsning o‘z tashabbusini ham ifodalaydi.

Iste’foning huquqiy tabiatini aniqlashda uni lavozimdan ozod etish va ishonchsizlik votumidan farqlash zarur. Lavozimdan ozod etish mansabdor shaxs vakolatlarining tugatilishini rasmiylashtiradigan huquqni qo‘llash hujjatidir. Iste’fo esa ushbu hujjat qabul qilinishiga asos bo‘lgan holatni ifodalaydi. Ishonchsizlik votumi iste’foning mustaqil turi emas, balki hukumatning jamoaviy iste’fosiga olib keladigan parlament vositasidir. Shu sababli lavozimdan ozod etish to‘g‘risidagi hujjatning o‘zi iste’foning qaysi turi qo‘llanganini aniqlab bermaydi.

Konstitutsiyaviy-huquqiy javobgarlik nazariyasida vakolatlarni muddatidan oldin tugatish javobgarlik chorasi sifatida ham ko‘rib chiqiladi. Biroq iste’foning barcha holatlarini javobgarlik bilan tenglashtirib bo‘lmaydi. Ishonchsizlik votumi yoki vakolatli organning tashabbusi bilan iste’foga chiqarish mansabdor shaxs faoliyatiga berilgan salbiy baho bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Mansabdor shaxsning o‘z tashabbusi bilan iste’foga chiqishi esa uning huquqini amalga oshirish shaklidir. Vakolat muddati tugashi munosabati bilan iste’foga chiqish ham javobgarlik chorasi hisoblanmaydi. M. Tillabayeva ajratgan pozitiv va negativ javobgarlik nuqtayi nazaridan qaraganda, o‘z tashabbusi bilan iste’fo ko‘proq lavozim majburiyatlarini lozim darajada bajarish burchi, ya’ni pozitiv javobgarlik bilan bog‘liq deb hisoblaymiz.[5]

Shundan kelib chiqib, iste’foni ikki mezon asosida tasniflash maqsadga muvofiq. Tashabbus mezoniga ko‘ra ixtiyoriy iste’fo (mansabdor shaxsning o‘z arizasi bilan), majburiy iste’fo (vakolatli organ qarori yoki ishonchsizlik votumi natijasida) va vakolat muddati bilan bog‘liq iste’fo ajratiladi. Subyekt mezoniga ko‘ra yakka va jamoaviy iste’fo farqlanadi. Shu asosda iste’foni mansabdor shaxs yoki hukumat vakolatlarining Konstitutsiya va qonunda belgilangan asoslarda, shaxsning o‘z tashabbusi, vakolatli organning qarori yoxud vakolat muddati tugashi munosabati bilan tugatilishining

[5] Колосова Н.М. Конституционная ответственность в Российской Федерации. М.: Городец, 2000. Tillabayeva M. O‘zbekiston Respublikasida konstitutsiyaviy huquqning mohiyati masalasida // Jamiyat va innovatsiyalar. 2024. Vol. 5, No. 4/S. B. 47–55.

konstitutsiyaviy-huquqiy shakli sifatida ta’riflash mumkin.

Iste’foning yakka va jamoaviy turlarini farqlash vazirlar mas’uliyati doktrinasida ham asosiy o‘rin tutadi. Ingliz konstitutsiyaviy huquqida vazirlarning individual va jamoaviy mas’uliyati alohida ko‘rib chiqiladi. S. Finer individual mas’uliyat qoidasini tahlil qilib, uning iste’fo bilan yakunlanishi kamdan-kam uchrashini va bir qator omillarga bog‘liqligini ko‘rsatgan. D. Woodhouse esa vazirlarning parlament oldidagi hisobdorligi va mas’uliyati o‘rtasidagi nisbatni nazariya va amaliyot kesimida tahlil qilgan.[6] Ushbu yondashuvlar iste’foni faqat jamoaviy javobgarlik doirasida emas, hukumatning har bir a’zosi darajasida ham tartibga solish zarurligini ko‘rsatadi.

Iste’foning huquqiy oqibatlari uning turiga qarab farqlanadi. Hukumat vakolatlarini yangi saylangan Oliy Majlis oldida zimmasidan soqit qilgan taqdirda u yangi tarkib shakllantirilgunga qadar faoliyatini davom ettiradi. Konstitutsiyaning 118-moddasiga ko‘ra, Vazirlar Mahkamasining amaldagi tarkibi iste’foga chiqqanidan keyin bir oy ichida Bosh vazir lavozimiga nomzod taqdim etiladi.[7] Bu qoidalar davlat boshqaruvining uzluksizligini ta’minlashga qaratilgan. Hukumat a’zosining yakka tartibdagi iste’fosida ham shu prinsip amal qilishi lozim.

Amaldagi qonunchilikda ixtiyoriy iste’fo qisman tartibga solingan. Konstitutsiyaviy qonunning 8-moddasida Bosh vazirning iste’foga chiqish to‘g‘risidagi arizasi uni lavozimidan ozod etish asoslaridan biri sifatida belgilangan. Konstitutsiyaning 118-moddasi va Konstitutsiyaviy qonunning 7-moddasida esa Prezidentning hukumat a’zosini iste’foga chiqarish huquqi mustahkamlangan. Biroq Bosh vazir o‘rinbosarlari va vazirlarning o‘z tashabbusi bilan iste’foga chiqishi, arizani ko‘rib chiqish muddati va ariza ko‘rib chiqilgunga qadar vakolatlarni amalga oshirish tartibi Konstitutsiyaviy qonunda alohida nazarda tutilmagan.[8]

Bunday holatda umumiy mehnat-huquqiy asos, ya’ni Mehnat kodeksining 160-

[6] Finer S.E. The Individual Responsibility of Ministers // Public Administration. 1956. Vol. 34, No. 4. P. 377–396. Woodhouse D. Ministers and Parliament: Accountability in Theory and Practice. Oxford: Clarendon Press, 1994.
[7] O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 30.04.2023. 116, 118-moddalar.
[8] O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 30.04.2023. 118-modda. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy qonuni. 25.10.2024, O‘RQ-982-son. 7, 8-moddalar.

moddasida nazarda tutilgan xodimning tashabbusi bilan mehnat shartnomasini bekor qilish qoidasi qo‘llanishi mumkin. Biroq Vazirlar Mahkamasi a’zolarini tayinlash tartibi Konstitutsiya va Konstitutsiyaviy qonun bilan belgilanadi. Shu sababli ular vakolatlarining tugatilish asoslari ham xuddi shu darajadagi hujjatda belgilanishi qonunchilik texnikasi va huquqiy aniqlik talablariga mos keladi.[9] Masalan, vazir sog‘lig‘i holati yoki boshqa uzrli sabab tufayli vazifalarini bundan buyon bajara olmasligi haqida ariza bilan murojaat qilsa, amaldagi qonunchilikda bu arizani ko‘rib chiqish muddati belgilanmagan. Natijada ariza berilgan paytdan qaror qabul qilingunga qadar bo‘lgan davrda vazirning huquqiy holati qonun darajasida aniq belgilanmagan bo‘ladi.

Ishonchsizlik votumi milliy qonunchilikka 2011-yilda kiritilgan.[10] Amaldagi Konstitutsiyaning 119-moddasiga ko‘ra, Bosh vazir va Qonunchilik palatasi o‘rtasida ziddiyatlar doimiy tus olgan holda Qonunchilik palatasi deputatlari umumiy sonining kamida uchdan bir qismi tomonidan Prezident nomiga rasman kiritilgan taklif bo‘yicha Qonunchilik palatasining muhokamasiga Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi bildirish haqidagi masala kiritiladi. Votum deputatlar umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi ovoz bersa, qabul qilingan hisoblanadi va hukumatning butun tarkibi Bosh vazir bilan birga iste’foga chiqadi. Konstitutsiyaviy qonunning 7-moddasi ushbu qoidani takrorlaydi. I.A. Tretyak ishonch masalasini hokimiyat tarmoqlari o‘rtasidagi konstitutsiyaviy-huquqiy nizoni hal etish vositasi sifatida tahlil qilgan.[11] Votumni qo‘llash sharti bo‘lgan “ziddiyatlarning doimiy tus olishi” baholovchi tushuncha bo‘lib, uning mezonlari Konstitutsiyaviy qonunda ochib berilmagan. Huquqiy aniqlik prinsipi nuqtayi nazaridan bunday mezonlarni qonun darajasida belgilash maqsadga muvofiq.

Ishonchsizlik votumi hukumatning jamoaviy javobgarligiga taalluqli bo‘lsa, Konstitutsiyaning 118-moddasi va Konstitutsiyaviy qonunning 39-moddasi hukumat

[9] O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. 28.10.2022. 160-modda. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 30.04.2023. 118-modda.
[10] O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ayrim moddalariga (78, 80, 93, 96 va 98-moddalariga) o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonuni. 18.04.2011, O‘RQ-284-son.
[11] O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 30.04.2023. 119-modda. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy qonuni. 25.10.2024, O‘RQ-982-son. 7-modda. Третьяк И.А. Конституционно-правовой конфликт о доверии Правительству Российской Федерации в контексте конституционной реформы 2020 г. // Правоприменение. 2021. Т. 5, № 2. С. 159–169.

a’zosining yakka tartibdagi iste’fosida parlament ishtirokini nazarda tutadi. Qonunchilik palatasi hukumat a’zosining hisobotini eshitish yakunlariga ko‘ra uni iste’foga chiqarish to‘g‘risidagi taklifni Prezidentga ko‘rib chiqish uchun kiritishga haqli. Mazkur taklif bo‘yicha yakuniy qarorni Prezident qabul qiladi.[12] Demak, milliy qonunchilikda hukumat a’zosining parlament oldidagi yakka tartibdagi javobgarligi Prezident qarori orqali amalga oshiriladi.

Xorijiy davlatlar konstitutsiyalarida hukumat iste’fosining turli modellari mustahkamlangan. Germaniya Asosiy qonunining 67-moddasiga ko‘ra, Bundestag Federal kanslerga ishonchsizlikni faqat a’zolarining ko‘pchilik ovozi bilan uning vorisini saylash orqali bildirishi mumkin. Fransiya Konstitutsiyasining 49–50-moddalariga ko‘ra, Milliy assambleya senzura rezolyutsiyasini qabul qilsa, Bosh vazir hukumatning iste’fosini Prezidentga taqdim etadi. Yaponiya Konstitutsiyasining 69-moddasiga ko‘ra, Vakillar palatasi ishonchsizlik rezolyutsiyasini qabul qilsa va palata o‘n kun ichida tarqatib yuborilmasa, kabinet to‘liq tarkibda iste’foga chiqadi.[13] Bu modellarda iste’foning parlament tomonidan qo‘llanish shartlari va huquqiy oqibatlari aniq belgilangan.

Hukumat a’zosining ixtiyoriy iste’fosi nuqtayi nazaridan Qozog‘iston tajribasi e’tiborga loyiq. 2026-yil 15-martda referendumda qabul qilingan Qozog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasining 69-moddasiga ko‘ra, hukumat yoki uning istalgan a’zosi o‘ziga yuklatilgan vazifalarni bundan buyon bajarishni imkonsiz deb hisoblasa, Prezidentga iste’fo to‘g‘risida arz qilishga haqli. Prezident iste’foni qabul qilish yoki rad etish masalasini o‘n kun ichida ko‘rib chiqadi.[14] Shu tariqa hukumat a’zosining o‘z tashabbusi bilan iste’foga chiqish huquqi konstitutsiyaviy darajada, ko‘rib chiqish muddati bilan birga mustahkamlangan.

Qiyosiy tahlil ikki yondashuvni ko‘rsatadi. Birinchisida iste’fo asosan hukumatning parlament oldidagi jamoaviy javobgarligi orqali tartibga solinadi. Ikkinchisida bunga

[12] O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 30.04.2023. 118-modda. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy qonuni. 25.10.2024, O‘RQ-982-son. 39-modda.
[13] Grundgesetz für die Bundesrepublik Deutschland. 23.05.1949. Art. 67. Constitution de la République française. 04.10.1958. Art. 49–50. The Constitution of Japan. 03.11.1946. Art. 69.
[14] Конституция Республики Казахстан (принята на республиканском референдуме 15 марта 2026 г.). Ст. 69.

qo‘shimcha ravishda hukumatning har bir a’zosi uchun ixtiyoriy iste’fo tartibi belgilanadi. Milliy qonunchilikda birinchi yondashuv Konstitutsiyaning 119-moddasida aks etgan, ikkinchisi esa faqat Bosh vazirga nisbatan Konstitutsiyaviy qonunning 8-moddasida nazarda tutilgan. Hukumat a’zolarining maqomi bitta Konstitutsiyaviy qonun bilan belgilanishini hisobga olsak, ixtiyoriy iste’fo tartibini ularning barchasiga tatbiq etish izchil bo‘ladi. Bunda Prezidentning Konstitutsiya 118-moddasidagi vakolati to‘liq saqlanadi.[15]

Tahlil asosida, birinchidan, Konstitutsiyaviy qonunda “iste’foga chiqish” (mansabdor shaxsning o‘z tashabbusi) va “iste’foga chiqarish” (vakolatli organning qarori) iboralarining mazmunini aniq belgilash taklif etiladi. Bu atamalarning qonunchilikda bir xil qo‘llanishini ta’minlaydi. Ikkinchidan, “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy qonunni hukumat a’zosining o‘z tashabbusi bilan iste’foga chiqish tartibini belgilovchi modda bilan to‘ldirish taklif etiladi. Tegishli qo‘shimchani quyidagi tahrirda ifodalash mumkin:

“Vazirlar Mahkamasining a’zosi o‘ziga yuklatilgan vazifalarni bundan buyon bajarish imkoniyati yo‘q deb hisoblagan taqdirda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga iste’foga chiqish to‘g‘risida yozma ariza bilan murojaat qilishga haqli. Arizada iste’foga chiqish asoslari ko‘rsatiladi. Ariza O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan o‘n kun ichida ko‘rib chiqiladi. Ariza ko‘rib chiqilgunga qadar, shuningdek, iste’fo qabul qilinmagan taqdirda Vazirlar Mahkamasining a’zosi o‘z vazifalarini bajarishni davom ettiradi”.

Taklif etilgan qoida yangi javobgarlik turini yaratmaydi va Prezidentning hukumat a’zosini iste’foga chiqarish vakolatini cheklamaydi. U hukumat a’zosining o‘z tashabbusini rasmiylashtirish uchun aniq tartibni, ya’ni yozma ariza, ko‘rib chiqish muddati va ariza ko‘rib chiqilgunga qadar vakolatlarni amalga oshirish qoidasini belgilaydi. Bu Bosh vazirga nisbatan amal qilayotgan qoida bilan hukumatning boshqa a’zolari maqomini muvofiqlashtiradi. Uchinchidan, ishonchsizlik votumi bo‘yicha ziddiyatlarning doimiy tus olganini tasdiqlovchi holatlarni Konstitutsiyaviy qonunda aniqlashtirish taklif etiladi.

[15] O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 30.04.2023. 118-modda. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy qonuni. 25.10.2024, O‘RQ-982-son. 8-modda.

Xulosa

Tadqiqot natijasida iste’fo lavozimdan ozod etish to‘g‘risidagi hujjatning o‘zi emas, balki unga asos bo‘lgan konstitutsiyaviy-huquqiy holat ekani aniqlandi. Milliy qonunchilikda “iste’fo” atamasi vakolat muddati tugashi, vakolatli organ qarori va shaxsning o‘z tashabbusi bilan bog‘liq turli holatlarni ifodalaydi. Shu sababli iste’foni tashabbus va subyekt mezonlari bo‘yicha tasniflash uning huquqiy oqibatlarini aniq belgilash imkonini beradi.

Amaldagi qonunchilikda ixtiyoriy iste’fo faqat Bosh vazirga nisbatan belgilangan. Hukumatning boshqa a’zolari uchun ham yozma ariza, uni ko‘rib chiqish muddati va ariza ko‘rib chiqilgunga qadar vakolatlarni amalga oshirish tartibini “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy qonunda mustahkamlash taklif etiladi. Bu taklif Qozog‘iston Konstitutsiyasidagi yondashuvga mos keladi va milliy qonunchilikdagi mavjud tartibni izchil davom ettiradi.

Ishonchsizlik votumi bo‘yicha ziddiyatlarning doimiy tus olishi shartining mezonlarini qonunda aniqlashtirish huquqiy aniqlik prinsipini ta’minlaydi. Taklif etilgan o‘zgartishlar natijasida iste’fo instituti qonunchilikda yaxlit va izchil tartibga solinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alimov B.B. Hukumatni shakllantirish va javobgarligi: O‘zbekiston modeli va xorijiy tajriba // Yurisprudensiya. 2026. Vol. 6, No. 4. B. 48–56.

2. Constitution de la République française. 04.10.1958.

3. Finer S.E. The Individual Responsibility of Ministers // Public Administration. 1956. Vol. 34, No. 4. P. 377–396.

4. Grundgesetz für die Bundesrepublik Deutschland. 23.05.1949.

5. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 30.04.2023.

6. O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. 28.10.2022.

7. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ayrim moddalariga (78, 80, 93, 96 va 98-moddalariga) o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonuni. 18.04.2011, O‘RQ-284-son.

8. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy qonuni. 25.10.2024, O‘RQ-982-son.

9. The Constitution of Japan. 03.11.1946.

10. Tillabayeva M. O‘zbekiston Respublikasida konstitutsiyaviy huquqning mohiyati masalasida // Jamiyat va innovatsiyalar. 2024. Vol. 5, No. 4/S. B. 47–55.

11. Woodhouse D. Ministers and Parliament: Accountability in Theory and Practice. Oxford: Clarendon Press, 1994.

12. Колосова Н.М. Конституционная ответственность в Российской Федерации. М.: Городец, 2000.

13. Конституция Республики Казахстан. Принята на республиканском референдуме 15 марта 2026 г.

14. Третьяк И.А. Конституционно-правовой конфликт о доверии Правительству Российской Федерации в контексте конституционной реформы 2020 г. // Правоприменение. 2021. Т. 5, № 2. С. 159–169.

